



## SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF ECOLOGICAL ETHICS FORMATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

**Nazarov Makhsud Abduqodirovich**

Researcher at the National University of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262152>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Ecological ethics, globalization, spiritual values, ecological culture, sustainable development, environmental protection, ecological threats, attitude towards nature, ecological consciousness, ecological education.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the socio-philosophical aspects of the formation of ecological ethics in the context of globalization. The author studies the spiritual foundations of ecological ethics, its harmony with national and universal values, issues of developing ecological culture in Uzbekistan. The article also presents scientific conclusions about modern problems of the formation of ecological ethics and ways to solve them, about the role of moral norms in the fight against ecological threats.*

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**Назаров Махсуд Абдукадирович**

Соискатель Национального университета Узбекистана

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262152>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Экологическая этика, глобализация, духовные ценности, экологическая культура, устойчивое развитие, охрана окружающей среды, экологические угрозы, отношение к природе, экологическое сознание, экологическое образование.*

### ABSTRACT

*В данной статье анализируются социально-философские аспекты формирования экологической этики в условиях глобализации. Автором изучены духовные основы экологической этики, ее гармония с национальными и общечеловеческими ценностями, вопросы развития экологической культуры в Узбекистане. Также в статье представлены научные выводы о современных проблемах формирования экологической этики и путях их решения, о роли нравственных норм в борьбе с экологическими угрозами.*



## GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK AXLOQNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

**Nazarov Maxsud Abduqodirovich**

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262152>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Ekologik axloq, globallashuv, ma'naviy qadriyatlar, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi, ekologik tahdidlar, tabiatga munosabat, ekologik ong, ekologik ta'lim.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada globallashuv sharoitida ekologik axloqni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan ekologik axloqning ma'naviy asoslari, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi, O'zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada ekologik axloqni shakllantirishning zamonaviy muammolari va ularni hal etish yo'llari, ekologik tahdidlarga qarshi kurashda axloqiy normalarning o'rni haqida ilmiy xulosalar berilgan.*

### KIRISH

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari jahon miqyosida insoniyat oldiga ko'plab muammolarni qo'yimoqda. Ushbu muammolar orasida ekologik muammolar o'zining ko'lami va ahamiyati jihatidan alohida o'rin tutadi. Bu masala insonlarning ekologik ongi, ekologik madaniyati, tabiatga va atrof-muhitga munosabati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, global inqirozlarning oldini olishda ekologik axloqning o'rni beqiyosdir.

Globallashuv sharoitida ekologik axloqning shakllanishi masalalari ko'plab tadqiqotlarda o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o'zining «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli asarida: «Globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegara buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, «chaqirilmagan mehmon» bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz», deb ta'kidlaydi.

Birinchi Prezident I.Karimov esa globallashuv jarayonining ahamiyatiga to'xtalib: «Har qanday hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi — tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda», deb yozadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI



Zamonamizning yirik faylasuflari E.Toﬀler, E.Giddens, S.Xantington, Z.Bzejnskiy, shuningdek o'zbekistonlik S.Otamurodov va boshqa bir qator olimlar bir-biriga hamohang tarzda insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan global muammolarning ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilishgan [1]. S.Otamurodovning fikricha, globallashuv jarayoni "muayyan davlatlarning o'z urf-odat, an'ana, axloqiy qadriyatlarini o'zgaralar ongi va qalbiga singdirish, ularni amalga oshirish yo'li bilan o'zga millatni ma'naviy qashshoq, o'zligidan mahrum qilishdan iborat ekanligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir" [2].

Insoniyatning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ma'naviy-axloqiy normalarga asosan tashkil etishi milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarining uyg'unlashish tarixi bilan hamohangdir. Lekin, iqtisodiy manfaatlarning xilma-xilligi va ular o'rtasidagi ziddiyatlar ekologik munosabatlarni yagona maqsad doirasida uyg'unlashtirish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.

Shveysariyalik olim S.Sveg "Insonlar o'zlarining ma'naviy qadriyatlariga qaytadigan zamon kelishi muqarrar, bunday zamon cheksiz uzoq ham emas" [3], deb yozishi bilan insoniyat ma'naviy salohiyatiga umid bilan qaraydi.

Zamonamizning yirik faylasuflari E.Toﬀler, E.Giddens, S.Xantington, Z.Bzejnskiy, shuningdek o'zbekistonlik olim S.Otamurodov va boshqa bir qator mutaxassislar insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan global muammolarning ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilishgan. S.Otamurodovning fikricha, globallashuv jarayoni "muayyan davlatlarning o'z urf-odat, an'ana, axloqiy qadriyatlarini o'zgaralar ongi va qalbiga singdirish, ularni amalga oshirish yo'li bilan o'zga millatni ma'naviy qashshoq, o'zligidan mahrum qilishdan iborat ekanligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir".

Insoniyatning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ma'naviy-axloqiy normalarga asosan tashkil etishi milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarining uyg'unlashish tarixi bilan hamohangdir. Lekin, iqtisodiy manfaatlarning xilma-xilligi va ular o'rtasidagi ziddiyatlar ekologik munosabatlarni yagona maqsad doirasida uyg'unlashtirish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.

Shveysariyalik olim S.Sveg «Insonlar o'zlarining ma'naviy qadriyatlariga qaytadigan zamon kelishi muqarrar, bunday zamon cheksiz uzoq ham emas», deb yozishi bilan insoniyat ma'naviy salohiyatiga umid bilan qaraydi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda ekologik axloqni shakllantirishning nazariy-falsafiy jihatlarini o'rganishda umumilmiy va falsafiy metodlardan foydalanildi. Tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiy-mantiqiy metodlar yordamida ekologik axloqning shakllanish jarayonlari, uning globallashuv sharoitida rivojlanish xususiyatlari atroflicha o'rganildi. Shuningdek, germeneytik metodlar orqali zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keltirilgan fikr va mulohazalar tahlil etildi.

Tadqiqot doirasida ekologik axloq va ekologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy asoslarini, uning jamiyat barqaror rivojlanishiga ta'sirini aniqlash maqsadida tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. Shu bilan birga, umumlashtirish va abstraktdan konkretga ko'tarilish metodlaridan ham unumli foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**



Ekologik axloqning shakllanishi va rivojlanishi inson va jamiyatning ma'naviy takomillashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Shaxsning ekologik sifatlarini rivojlantirishda quyidagi ma'naviy-axloqiy mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Shaxsning ichki ekologik ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari atrof-muhitni asrash bo'yicha amaliy faoliyat talablariga mos kelishi zarurligi;
2. Inson shaxsiy iqtisodiy farovonligini ta'minlashda umumjamiyat ekologik manfaatlarini e'tiborga olishi lozimligi;
3. Ekologik muhitni sog'lomlashtirish bugungi va ertangi avlodlar turmush tarzining poydevori ekanligini tushunib yetishi;
4. Har qanday ijtimoiy faoliyatni ekologik ma'naviyat va axloq talablari asosida tashkil etishi va baholashi;
5. Ekologik mas'uliyat va faollikni oshirishga qaratilgan yangi usul va vositalarni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarurligi.

«Tabiat-jamiyat» munosabatini ekologik ma'naviy-axloqiy jihatdan komil shakllangan shaxslar orqali tashkil etish va istiqbolini ta'minlash mumkin. Insoniyatning tarixiy tajribalari ekologik barqaror taraqqiyotning asosini, faqatgina fan, texnika, texnologik rivojlanish emas, balki ularning sub'ekti bo'lgan intellektual salohiyat, ma'naviy-madaniy saviya, zamon talablariga ko'ra tafakkurning yangilanishi tashkil qilishini isbotlab bermoqda. Jamiyatda fan-texnika taraqqiyotning ekologik oqibatlarini, ularning globallashtirish xususiyatlarini, ma'naviy-axloqiy mohiyatini anglashdan tashqarida tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini tasavvur qilish mumkin emas.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ekologik munosabatlarni mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib, hozirgi davr talab va imkoniyatlariga muvofiq tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu boradagi ishlarni demokratik asoslarda tashkil qilish, nazorat qilishning qonuniy-huquqiy asoslari yaratildi.

«Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mahalliy harajatlar rejalari (AMMKMHR)» loyihasi va uslubiyati ekologik muammolarni amalda hal qilishga qaratilgan bo'lib, ekologik boshqaruvning yetakchi amaliyotlarini o'zida mujassam etgan. Bu yo'nalishda 20 dan ortiq ekologik tashkilotlar faoliyat yuritmoqda va ularning rejalari boshqaruvning samarali modeli sifatida tan olingan.

Tabiatdan foydalanish tartibi, ya'ni yerdan, uning qa'ridan, suvdan, hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanishga doir qoidalar ekologik munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim omillardir. O'zbekiston atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlangan yirik tadbirlarning faol ishtirokchisi va tashabbuskori sifatida tanilgan. BMTning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha dasturlari va Parij kelishuvi doirasidagi majburiyatlarni bajarishga qaratilgan amaliy harakatlar jahon hamjamiyati tomonidan rasmiy minbarlarda e'tirof etilmoqda.

Milliy va umuminsoniy ekologik axloqiy normalarning atrof muhitga munosabatni kuchaytirishda huquqiy madaniyatning roli ham beqiyosdir. Bu borada O'zbekistonda sud-huquq organlarini isloh etish jarayonlari davom etmoqda. Demokratiyalashning muhim sohasi bo'lgan sud-huquq tizimidagi o'zgarishlar ekologik munosabatlarni ham takomillashtirishga xizmat qilmoqda.



O'zbekistonning siyosiy madaniyatida insoniylik xarakteri negizida jamiyat hayotida ma'naviylikning roli oshib bormoqda. Bu esa ekologik madaniyatni rivojlantirishga, tabiatni asrab-avaylash tamoyillarini jamiyatda qaror toptirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ekologik axloq insoniyatni tabiiy muhitni izdan chiqaruvchi rivojlanish yo'lidan, atrof-muhitni e'zozlash va go'zallashtirishga asoslangan taraqqiyot sari yo'naltiruvchi ma'naviy kompas vazifasini bajaradi. Ekologik axloq ayni shu o'tish chegarasida hozirgi va kelajak insoniyat madaniyatini qaror toptiruvchi omilga tobora ko'proq aylana boradi.

Mamlakatimizda ekologik maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida muhim amaliy qadamlar qo'yilmoqda. Bu esa milliy va umuminsoniy ekologik axloqiy normalarning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishini taqozo etadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni ifodalash mumkin:

1. Globallashuv sharoitida ekologik axloq shaxs va jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ekologik axloq nafaqat tabiatga munosabatni, balki insonlararo munosabatlarni ham tartibga soluvchi ma'naviy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.
2. Milliy va umuminsoniy ekologik axloqiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Bu jarayonda iqtisodiy manfaatlardan ekologik manfaatlarni ustun qo'yish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Ekologik axloqning shakllanishi va rivojlanishida ma'naviy-ma'rifiy omillarning roli beqiyos. Shaxsning ekologik madaniyatini oshirishda ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati muhimdir.
4. O'zbekistonda ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy asoslarning takomillashtirilishi ekologik axloqning jamiyatda qaror topishiga xizmat qilmoqda.
5. Jamiyat va shaxsning ekologik madaniyati bir-birini to'ldiruvchi hodisadir. Jamiyatda qaror topgan ekologik qadriyatlar shaxsning ekologik ongini shakllantirsa, o'z navbatida, har bir insonning ekologik madaniyati umumjamiyat ekologik tafakkurini yuksaltiradi. Bu o'zaro ta'sir doimiy ravishda davom etadigan jarayondir.
6. XX asrda vujudga kelgan ekologik axloq va madaniyat ekologik falokatlarni oldini olish va bartaraf etish qobiliyatiga ega emas edi. Ekologik axloq va madaniyatni shakllantirish uchun insoniyatning butun intellektual qobiliyati va imkoniyatini ishga solish zarurki, ular texnogen xavfini bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqsin. XXI asrda insoniyat, ilm-fan, ma'rifat oldida tutgan global masala ana shundan iborat.
7. Tabiatni ekologik tahlikadan saqlab qolish insonning o'z qo'lida ekanligini chuqur anglagan holda shaxsning ekologik axloqi va madaniyatini shakllantirishni butun ta'lim-tarbiya ishlarining o'zagiga qo'yib ish yuritish zarur.
8. Bugungi kunda ekologik axloq va madaniyatni rivojlantirish har bir fuqaro va umuman jamiyat uchun hayotiy muhim masala sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalarining bu boradagi faoliyatini yanada kuchaytirish talab etiladi.
9. Ekologik ong va madaniyatni yuksaltirish ishlariga keng aholi qatlamlarini, xususan mahalla institutlari, oilalar va jamiyatning barcha a'zolarini jalb etish zarur. Bunda zamonaviy qarashlar bilan milliy an'analar uyg'unligiga e'tibor qaratish lozim.

### **References:**



1. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: «O'zbekiston» nashriyoti. 2021.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
3. Otamurodov S. Globallashuv va millat. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2008.
4. Цвиг С. Зигмунд Фрейд. Рухий таҳлил санъати. Жаҳон адабиёти. 2000, март.
5. Флоров И.Ф. Перспективы человека. -М.: 1979.
6. Habibullaev A. Atrof muhit muhofazasiniig asosiy yo'nalishlari // Ekologicheskiy vestnik. — 1999. №5-6.
7. Сангинов С. К устойчивому развитию // Экологический вестник. - 1999. -№1-2.
8. Тоффлер Э. Третья волна. Москва. АСТ 2010.
9. Гидденс Э. Устройство общества. Очерк теории структурции. М. Академический проект 2018г.
10. Хантингтон С. Кто мы?: Вызовы американской национальной идентичности / Пер. С англ. А.Башкирова. –М.:ООО «Издательство АСТ», 2004.